



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Bola(lar) bilan oilani birlashtirish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi.**
- Voyaga yetmagan bola(lar)ning xorijlik bilan oila birlashuvida yosh chegaralangan (16 yoki 18 yosh, bola biror shaxsning ortidan borayaptimi yoki u bilan bir vaqtda chiqib ketmoqchimi, Germaniyadagi shaxsning u yerdagi yashash maqomi qandayligiga bog'liq) shuningdek yakka vasiylikni tasdiqlash uchun talablar mavjud. **16 yoshga to'lgan bolalarning xorijlik bilan oila birlashuvi** faqat bola nemis tilini bilsagina amalga oshirilishi mumkin, hamda uning Germaniya hayot tarziga integratsiyalashuvi, shuningdek ota-onasi yoki uning uchun yakka vasiylik huquqiga ega shaxsning Germaniyada muntazam yashash maqomiga ega bo'lishi kutiladi. Ushbu talablar bajarilmaganda xorijlik bilan oila birlashtirmoqchi bo'lgan, 16 yoshga to'lgan bolalar faqat mushkul vaziyatlarda yechim topish maqsadidagi istisno xolatlar doirasidagina Germaniyaga kirishlari mumkin. Ushbu masala jiddiy me'zonlar asosida ko'rib chiqilishi va **shuning uchun barcha asosli hujjatlarni viza arizasini topshirish vaqtidayoq taqdim etish kerakligini** inobatga olishni so'raymiz.
- ariza topshirish uchun asos sifatida zarur bo'lgan qarindoshlik rishtalari mavjudligini fuqarolik holati bo'yicha guvohnomalar asosida tasdiqlash lozim. Qoidaga muvofiq, O'zbekistonda berilgan fuqarolik holati bo'yicha guvohnomalar belgilangan jarayon asosida tekshirilishi kerak. Bu masaladagi qarorni elchixona qabul qiladi.
- **Arizani ko'rib chiqish muddati** tajribaga muvofiq **6-8 haftani** tashkil etadi. Agar hujjatlarni tekshirish lozim bo'lsa, ushbu muddat uzayadi.
- Arizangiz borasida qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi ushbu qarorni shaxsan o'zi olib ketishi mumkin.
- Bolaning Germaniya fuqarosi bo'lmagan shaxs bilan oila birlashuvi uchun olinadigan **viza badali** 37,50 yevroni tashkil etadi va to'lov ariza topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart.



Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat. (2ta fotosurat ariza blankiga yelimlangan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Bolaning **kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan passporti** va shaxsiy ma'lumotlari bo'lgan sahifalaridan nusxa.
- Bolaning ota-onasi yohud unga vasiylik huquqida ega shaxs tomonidan **imzolangan**, chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **izoh**.
- Bola(lar)ning tug'ilganligi haqida O'zbekiston Respublikasida berilgan guvohnoma(lari)si va u(lar)ning nemis tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasini; nikohdan tashqarida tug'ilgan bolalar bo'lsa, FHDYO bo'limidan otani bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasiga kiritish uchun asos haqida xat.
- Bolani tarbiyalash huquqiga ega, ammo u bilan safarga chiqmayotgan **ota yoki onaning notarius tomonidan tasdiqlangan rozilik xati va uning tarjimasini**
- Germaniyadagi shaxsning pasporti va u yerda yashash uchun ruxsatnomasidan nusxa**
- Germaniya fuqarosi bo'lmagan ota-ona bilan oilani birlashtirishda:** Germaniyadagi shaxsning arizachi bolaga nisbatan yakka vasiylik huquqiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat. Ota-ona ajrashgan yoki bola nikohdan tashqarida tug'ilgan va ota-ona ikkisi ham bolani tarbiyalash huquqiga ega bo'lsa, bolaning otasi yoki onasining umr yo'ldoshi bilan oilani birlashtirish uchun huquqiy asos mavjud bo'lmaydi. Shunga qaramay oila birlashuvi bolaning manfaatini, O'zbekistondagi yashash sharoitini, unga shu paytgacha ko'rsatilgan g'amxo'rlik, uning o'ziga nisbatan vasiylik huquqiga ega shaxsga bo'lgan shaxsiy munosabati, bolaning O'zbekistonda ijtimoiy shakllanishi va Germaniyada integratsiyalashuv imkoniyatlarini inobatga olgan xolda mushkul vaziyatga yechim topishga xizmat qilsa, amalga oshishi mumkin va bu yozma ravishda alohida izohlanishi lozim. Shuningdek mushkul vaziyatda yechim topsih xolatlarida bolani tarbiyalash huquqiga ega, ammo safarga birga chiqmayotgan ota yoki onaning keng qamrovli rozilik xati taqdim etilishi lozim. Rozilik xati vaziyatga yechim topish uchun asos xisoblanmaydi.
- Germaniya Federativ Respublikasida bo'lish vaqtida doimiy amal qiladigan tibbiy sug'urta polisi. (ariza bo'yicha qarorni olishdan oldin taqdim etiladi).**